

**SPORTDAGI KORRUPSIYA VA DOPING MUAMMOSI****Ergashaliyeva Shirinxon Soyibjon qizi***FarDU jismoniy madaniyat fakulteti jismoniy madaniyat yo'nalishi**2-kurs 23.45-guruh talabasi*

Annotatsiya: *Korrupsiya sportning adolat tamoyillariga putur yetkazib, moliyaviy firibgarlik, kelishilgan o'yinlar va mansabdor shaxslarning suiiste'moli kabi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Doping esa sportchilarning g'alabaga noqonuniy yo'l bilan erishishiga sabab bo'lib, nafaqat adolatli raqobatga, balki sportchilarning sog'lig'iga ham jiddiy xavf tug'diradi. Maqolada ushbu muammolarning sabablari, oqibatlar va ularni bartaraf etish bo'yicha xalqaro tashkilotlarning sa'y-harakatlari haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, sportning pokligini saqlash uchun amalga oshirilayotgan qonuniy choralar ham tahlil qilinadi.*

Annotation: *Corruption is manifested in manifestations such as compromising the principles of Justice of the sport, financial fraud, agreed-upon games, and abuse of officials. Doping, on the other hand, causes athletes to achieve victory in an illegal way, posing a serious threat not only to fair competition, but also to the health of athletes. The article reflects on the causes, consequences of these problems and the efforts of international organizations to eliminate them. Legal measures being taken to maintain the purity of the sport are also analyzed.*

Аннотация: *Коррупция подрывает принципы справедливости в спорте, проявляясь в таких проявлениях, как финансовое мошенничество, согласованные игры и злоупотребления должностными лицами. Допинг, с другой стороны, заставляет спортсменов добиваться победы незаконным путем, создавая серьезную угрозу не только для честной конкуренции, но и для здоровья спортсменов. В статье рассматриваются причины, последствия этих проблем и усилия международных организаций по их преодолению. Также будут проанализированы правовые меры, предпринимаемые для поддержания чистоты спорта.*



Sport hayotimizda faqat jismoniy harakat yoki faollik eams balki adolat, halollik va mehnatsevarlik timsoli hamdir. So'ngi yillarda sportning har qaysi sohasida korrupsiya va doping kabi salbiy holatlar keng tarqalib ketdi. Bu kabi illatlar sportning asl qadriyatlariga putur yetkazmoqda. Sportdagi korrupsiya – bu noqonuniy moliyaviy operatsiyalar, kelishilgan o'yinlar, mansabdor shaxslarning suiste'moli va boshqa nohalol harakatlarni o'z ichiga oladi. Doping esa sportchilarning jismoniy imkoniyatlarini sun'iy ravishda oshirish maqsadida taqiqlangan dorilar va usullardan foydalanishidir. Bu kabi amaliyotlar xalqaro sport tamoyillariga zid hisoblanib, sportning adolatli raqobat mexanizmlarini buzadi.

Korrupsiya kirib borgan har qaysi soha izdan chiqishni boshlaydi. Sport sohasida korrupsiyaning avj olib ketishining bir necha omillari bo'lib, ular : nazorat mexanizmlarining sustligi, mansabdor shaxslarning o'z vakolatlarini suiste'mol qilishi, sport tashkilotlarida shaffoflikning yetishmasligi, katta moliyaviy manfaatlar va boshqalardir. Korrupsiyaning sport sohasiga kirib kelishi insonlarning sportga bo'lgan ishonchini susayishiga, halol sportchilarning adolatsizlik qurboni bo'lishlariga, moliyaviy firibgarliklarning sport rivojiga to'sqinlik qilishiga, kelishilgan o'yinlar oqibatida muxlislarning qiziqishini so'nishiga olib kelmoqda. Sportda korrupsiya holatlari aniqlansa, turli darajalarda chora ko'riladi. Chora-tadbirlarni qay birini qo'llash jinoyatning darajasiga bog'liq. Dastlab, tergov va tekshiruv olib boriladi. Agar sportchi yoki murabbiy korrupsiyaga aloqador deb topilsa, ular musobaqalardan chetlatiladi, ba'zi holatlarda esa umrbod ta'qiqlanadi. Ayrim holatlarda korrupsiya davlat qonunlarini buzish deb topilib, aybdorlar sudga tortiladi va qamoq jazosi olishi mumkin. Agar match yoki musobaqa natijalari kelishilgan bo'lsa, ular bekor qilinishi va mukofot pullari qaytarilishi mumkin. Sport tashkilotlarida korrupsiya holatlari yuz bersa, rahbariyat o'zgartirilishi va tizimga islohotlar kiritilishi mumkin. Bu kabi holatlarda tegishli rahbar yoki lavozim egasi, mansabdor shaxs lavozmidan ozod etiladi. Boshqaruv tizimi ko'rib chiqiladi, yangi o'zgarishlar kiritiladi va qat'iy talablar qo'yiladi.

Doping - doimiy g'alaba qozonish uchun vosita hisoblanmaydi. Bir marotaba g'alaba keltirgan narsa har doim foyda keltiradi degani emas. Mehnat qilish,



o'z ustida ishlash, xatolarni tahlil qilib borish orqaligina ko'p marotaba g'alaba qozonish mumkin. Doping sportchilarning sog'ligiga jiddiy zarar yetkazadi. Sport musobaqalarining obro'sini tushiradi. Sportchilar o'rtasida nohalol raqobatni kuchayishiga olib keladi. Musobaqa natijalari sun'iy ravishda o'zgaradi. Dopingni har xil turlari mavjud: stimulyatorlar- asab tizimini qo'zg'atib, charchqoni kamaytiradi. Stimulyatorlarga: kofein, amfetaminlar kiradi. Anabolik steroidlar- mushak massasini oshirish uchun ishlatiladi. Eritropoetin – qon tarkibini o'rgartirib, chidamlilikni oshiradi. Diuretiklar- organizmdan suyuqlikni chiqarib, vazn yo'qotish yoki doping izlarini yashirish uchun ishlatiladi. Gormonlar- o'sish gormoni yoki insulin kabi moddalar sport natijalarini yaxshilash uchun qo'llaniladi.

Korrupsiya va dopingga qarshi kurashish uchun xalqaro va milliy darajada ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jahon Antidoping Agentligi tomonidan doping sinovlarini muntazam o'tkazilmoqda. Bu kabi muammolarni hal qilish uchun qat'iy nazorat, adolatli qoidalar va halollik tamoyillariga asoslangan yondashuv zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayev, D.N. (2024). Globallashuv jarayonida talabalar sporti va jismoniy tarbiya ta'limining dolzarb muammolari va yechimlari. Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. Urganch davlat pedagogika instituti.
2. Kurbanova, Sh.N. (2022). O'spirinlik davrining o'ziga xos psixologik xususiyatlari. Innovation in the Modern Education System xalqaro ilmiy konferensiyasi materiallari. Vashington, AQSh.
3. Tursunpulatova, G.N. (2022). O'zbekiston davlat boshqaruv tizimini takomillashtirishning dolzarb masalalari. Innovation in the Modern Education System xalqaro ilmiy konferensiyasi materiallari. Vashington, AQSh.
4. Magrupova, Z.A. (2022). O'zbekiston davlat boshqaruv tizimini takomillashtirishning dolzarb masalalari. Innovation in the Modern Education System xalqaro ilmiy konferensiyasi materiallari. Vashington, AQSh.



5. Pardaev, S.A. (2022). Ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida ijtimoiy-pedagogik jarayon. Innovation in the Modern Education System xalqaro ilmiy konferensiyasi materiallari. Vashington, AQSh.
6. Eshnazarov, J. (2008). Jismoniy madaniyat tarixi va boshqarish. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.